

**MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI STEAM
TEXNOLOGIYASI ORQALI TASHKILLASH**

*Nabiyeva Rohila Erkinjon qizi – FarDU talabasi.
G'ulomjonova Mubdi'ma G'ayratjon qizi – FarDU talabasi.
Muhammadjonova Farangizbegim Ma'mirjon qizi – FarDU talabasi.*

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, STEAM texnologiyasi, innovatsion metodlar, ko'nikmalar, amaliy ko'nikma, nazariy ko'nikma, ko'rsatkich, daraja, usul.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda STEAM texnologiyasida foydalanib, darslarni tashkillash haqida yoritib berilgan. Bugungi davr dunyo ta'limi oldiga ham katta vazifalarni qo'yimoqda. Bunda qo'yilgan asosiy talab yosh avlodni ma'naviy -axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, tez o'zgarayotgan dunyoga moslashishni o'rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishga qaratilgan. Ushbu fikrlarning tasdig'i sifatida, bu maqolada boshlang'ich ta'lim fanlari uchun STEAM ta'limini joriy etish maqsadida motivatsion va innovatsion yechimlarini qo'llash, ta'lim resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar yoritilgan.

“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod sanalgan yoshlarning qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois yoshlar orasida zo'ravonlik g'oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish maqsadida ular ongida, qalbida ma'naviy immunitetni yanada mustahkamlash zarur”¹.

Ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2018-yil 5-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5538-son Farmoni qabul qilindi. Unda xalq ta'limi tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari sifatida:

1. Xalq ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish belgilangan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ushbu Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi № PP-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Konferensiyasining 72-sessiyasidagi so'zlagan nutqi.

3931-son qarori bilan tasdiqlangan “2018-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi” ning II bo‘lim, 11-bandida: Umumiy o‘rta ta’limning yangi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) metodlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun avvalo ta’lim ishtirokchilari–pedagoglar, metodistlar, o‘quvchilar, ota-onalar va boshqalar STEAM metodi va ta’lim sifati yo‘nalishida o‘tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar haqida ma’lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo‘llashi uchun malakalarga ega bo‘lishlari zarur bo‘ladi.

STEM / STEAM / STREAM yangi yondashuvlari rivojlangan davlatlarda keng qo‘llanilib, jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanmoqda.

STEAM yondashuvi o‘quv samaradorligiga qanday ta’sir qiladi? Uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya’ni, o‘rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo‘limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o‘rganish tez o‘zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun ham miyani, ham qo‘llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o‘zlari “uqib oladilar”. STEAM ta’limi nafaqat o‘qitish usuli, balki mantiqiy fikrlash ta’limidir.

Ta’lim berishni o‘quv fanlari bo‘yicha emas, balki “mavzu”lar bo‘yicha integratsiyalab olib borish. STEM –ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog‘liq kasblarga bo‘lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

STEAM -ta’limini joriy etishdan asosiy maqsad – o‘quvchi yoshlarning qiziqishlarini maktab yoshidan erta aniqlash va iqtidorini, ijodkorligini rivojlantirishga yo‘naltirish, yangiliklarni hayotga tatbiq etish orqali ilmiy izlanuvchan, yaratuvchan kadrlarni tarbiyalash.

STEAM o‘quvchilarni ilhomlantiradi, o‘quvchilar kashfiyotchilar va olimlar sifatida tadqiqotlar olib borishadi, texnologiyalarning imkoniyatlarini bilishadi, muhandislar sifatida loyihalashadi, rassomlar sifatida ijod qilishadi, matematiklar kabi fikrlashadi va albatta bolalar zavqlanib o‘ynashadi.

Boshlang‘ich sinflarda Tarbiya fanlarni o‘qitishda STEAM texnologiyasini qo‘llasak, bolalar mavzuni yaxshiroq tushunib, atrofdagi insonlarni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirishni yangi darajasini ta’minlaydi.

Shunday ekan, „Mening sog‘ligim” mavzusini STEAM texnologiyasi asosida ishlab chiqamiz.

STEAM texnologiyasidagi S harfi fanni bildiradi. Bunda o'quvchilar nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiriladi.

Nazariy ma'lumot: Me'yorli ovqatlanish-insonning salomatligini saqlash yoki yaxshilashga yordam beradigan oziq-ovqatlarni iste'mol qilishdir.

T harfi texnologiyani bildiradi. Mavzu bayoni bilan tanishib chiqqach, quyidagi fikrlarning qaysi biri to'g'ri ekanini o'zlari mustaqil bajarishadi.

- Donli mahsulotlarda oqsil ko'p bo'ladi ;
- Dukkakli mahsulotlar go'shtni o'rnini bosadi;
- Meva va sabzavotlar kunlik yegulikning yarmini tashkil qilishi mumkin;
- Shirinliklarni ko'p yeyish mumkin emas;

E harfi muhandislikni bildiradi. Bunda o'quvchilarga qog'oz yoki plastilindan o'zlari yoqtirgan vitamanga boy meva yoki sabzavotlarni yasashlari topshiriladi.

A harfi san'atni bildiradi. O'quvchilar o'zlariga xohlagan meva yoki sabzavotlar haqida ijodiy o'zlari fikrlab, she'r, hikoya, komediyali hikoya yoki o'sha meva va sabzavotlarni rasmlarini daftarlariga chizishlari mumkin.

M harfi matematikani bildiradi. Bunda o'quvchilar vitamanga boy biror meva, sabzavot yoki mahsulotlarni birini tanlab, ularda qancha kaloriya borligini aniqlashlari topshiriladi. Albatta, ularga boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. Masalan, 1 ta olmada - 30 kkal, 100 g go'shtda -218 kkal, 1 stakan sutda -42 kkal shu kabilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'limda STEAM yondashuvi o'quvchilarga har bir darsda o'qituvchi nazorati ostida mavzularni amaliy tarzda bajarishlari mumkin. O'z g'oyalarni haqiqatga aylantirishlari va yaratgan mahsulotlari uchun rag'batlantiradi. Ushbu ta'lim yondashuvi o'quvchilarga nazariy va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga yordam beradi va oily ta'lim muassasalarida o'qishni yanada osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PFRQ – 5538-son farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2018-yil 10-sentyabr, 36-son, 722-modda.
2. Avliyakov N.X. Musayeva N.N Pedagogik texnologiyalar-T., Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008-yil.
3. X.M. Baybayeva "STEAM ta'limi mazmun-mohiyati, ahamiyati" ma'ruza matni.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining elektron sayti: www.edu.uz.